

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI




**70411302 – BIZNESNI BOSHQARISH (MASTER OF BUSINESS
ADMINISTRATION –MBA, BANKING, FINANCE & FINTECH,
GENERAL) MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA KIRISH
BO‘YICHA MAXSUS FANLARDAN SINOVLAR
("IQTISODIYOT NAZARIYASI" VA "MENEJMENT" FANLARI)**

DASTURI

Fan bo'yicha magistraturaga kirish sinovlar dasturi Bank-moliya akademiyasi Kengashining 2022-yil « 20 » iyun dagi 2 - sonli majlis bayonnomasi bilan ma'qullangan.

«TAVSIYA ETILGAN»

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasida muhokama qilingan va tavsiya etilgan

Kafedra mudiri  D.N.Xusanov
(kafedra majlisining “2” - sonli bayonnomasi
“8” iyun 2022-yil)

Tuzuvchilar:

Xusanov D.N.

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasida mudiri, i.f.d.

Abduraxmonov I.X.

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Sug’urta va risklarni boshqarish” kafedrasida mudiri, i.f.n., dots.

Taqrizchilar:

Berdiyarov B.T.

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi prorektori, i.f.d., prof.

Absalamov A.T.

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Raqamli bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.f.d., dots.

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 yil 28 yanvardagi 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli, 2019 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-60-sonli, 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 824-son (2020 yil 31 dekabr) Qarorlarining asosiy qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan va unda «Iqtisodiyot nazariyasi» va “Menejment” fanlarini o‘qitishda zarur bo‘lgan asosiy jihatlar yoritilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib 70411302 – Biznesni boshqarish (Master of Business Administration – MBA) (Bank ishi - Banking, Moliya va moliyaviy texnologiyalar - Finance & FinTech, Asosiy – General ixtisosliklari) magistratura mutaxassisligiga o‘qishga qabul qilinayotgan tinglovchilar quyidagi bazaviy mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab qilinadi.

I. FANNING ASOSIY MAVZULARI

“IQTISODIYOT NAZARIYASI” FANI

1-MAVZU. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA BILISH USULLARI

Iqtisodiyot tushunchasi, uning tarkibi va tuzulishi. Iqtisodiy faoliyat va takror ishlab chiqarish jarayoni. Iqtisodiyotning bosh masalasi va uning ikki tomoni.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari. Iqtisodiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.

Iqtisodiy qonunlar va jarayonlarni ilmiy bilishning usullari. Iqtisodiy tahlilda abstraksiya, induksiya, deduksiya, normativ, pozitiv, analiz, sintez, tarixiy, matematik, statistik va grafik usullardan foydalanish. Iqtisodiy modellar tushunchasi. Optimallashtirilgan va muvozanatlashgan modellar.

2-MAVZU. ISHLAB CHIQRISH JARAYONI, UNING NATIJALARI VA SAMARADORLIGI

Ishlab chiqarish omillari va ularning turkumlanishiga turlicha yondashuvlar. Ishlab chiqarish omillari to‘g‘risidagi nazariyalar.

Ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi. Ishlab chiqarishning jamiyat hayotidagi ahamiyati. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning o‘zaro bog‘liqligi.

va uning egri chizig‘i. Ishlab chiqarish funksiyasi. Unumdorlikning pasayib borish qonuni. Ishlab chiqarishning mikro va makro darajasi. Ishlab chiqarish samaradorligi, uning ko‘rsatkichlari va hisoblash usullari. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari va omillari.

3-MAVZU. IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI

Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an’anaviy iqtisodiyot, buyruqli iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni. Mulk obyekti va subyekti. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlari.

Mulk shakllarining tasniflanishi. Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o‘rni. Mulkchilik shakllarini o‘zgartirish usullari: milliyashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari. O‘zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

4-MAVZU. TOVAR-PUL MUNOSABATLARI

“Iqtisodiy ne’mat”, “mahsulot”, “tovar” va “xizmat” tushunchalari mazmuni. Tovar va uning xususiyatlari. Tovarining nafliligi. Tovar qiymatining miqdori. Naflilik turlari. Keyingi qo‘shilgan miqdor nafliligi nazariyasi. Umumiy va aniq naflilik. Naflilikning pasayib borishi. Mehnat unumdorligi va intensivligining tovar qiymati miqdoriga ta’siri.

Pulning kelib chiqishi va mazmuni. Pul to‘g‘risidagi metallistik, nominalistik va miqdoriy nazariyalar. Pulning vazifalari: qiymat o‘lchovi, muomala vositasi, jamg‘arish vositasi, to‘lov vositasi. Hozirgi zamon pulining tabiati va mazmuni. Oltin va qog‘oz pullarning o‘zaro bog‘liqligi. Naqd va kredit pullarning xususiyatlari.

O‘zbekistonda milliy valuta – so‘mning muomalaga kiritilishi bosqichlari va ularning ahamiyati. Milliy valuta barqarorligini oshirish vazifalarini hal etish borasidagi dasturlar.

5-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTI. BOZOR VA UNING TUZILISHI

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining subyektlari: uy xo‘jaliklari, tadbirkorlik va davlat sektori. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor tizimining o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizmi. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. Zamonaviy bozor xo‘jaligi modellari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo‘llari.

“Bozor” tushunchasi va uning asosiy belgilari. Bozor mexanizmi. Bozorning obyektlari va subyektlari. Bozorning vazifalari. Bozorning turkumlanishi. Resurslar, mahsulotlar, daromadlarning doiraviy aylanish modeli va uning turlari.

Bozor infratuzilmasi. Bozor infratuzilmasi turlari. Bozor infratuzilmasi tarkibi.

6-MAVZU. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI

Talab tushunchasi. Individual talab va bozor talabi. Talab qonuni. Talab egri chizig‘i. Talab miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar: tovarlar narxi, iste’molchi didi, bozordagi iste’molchilar soni, ularning pul daromadi, o‘rnini bosuvchi tovarlar narxi, kelajakda narx va daromadlar o‘zgarishining ehtimoli. Oliy va past toifali tovarlar.

Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif egri chizig‘i. Taklif miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar: resurslar narxi va unumdorligi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx o‘zgarishining kutilishi, ishlab chiqaruvchilar soni. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari.

Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi. Qisqa va uzoq davrlarda talabning o‘zgarishi. Bozor muvozanati. Xususiy va umumiy muvozanatlik. Talab va taklif egiluvchanligi va ularni belgilab beruvchi omillar. Egiluvchanlik koeffitsentini hisoblash.

7-MAVZU. NARX VA UNING SHAKLLANISHI

Narxning mazmuni va uning ob'yektiv asoslari. Narx to'g'risidagi turli nazariyalar. Tovar xususiyatlarining narxlarda ifodalanishi. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning vazifalari.

Narx tashkil topishining bozor mexanizmi. Sof raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari. Sotuvchi va xaridor narxlari. Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Umumiy taklif bo'yicha narx o'zgarishi. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Umumiy talab bo'yicha narxning o'zgarishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Narxdagi yetakchilik.

Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari. Narxlarni erkinlashtirish yo'llari va bosqichlari.

8-MAVZU. RAQOBAT VA MONOPOLIYA. ANTIMONOPOL QONUNCHILIK

Raqobatning mohiyati va obyektiv asoslari. Raqobatning turlari: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat. Raqobat shakllari: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya. Raqobatlashish usullari: narx vositasida va narxsiz raqobat. G'irrom va halol raqobat. Demping narxlarni qo'llash. Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing.

Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari. Kapitalning to'planishi va markazlashuvi. Monopoliyalarning turlari: iqtisodiy va tabiiy monopoliyalar. Legal va sun'iy monopoliyalar. Monopoliyalarning afzalliklari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. O'zbekistonda raqobat muhitining kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar.

Antimonopol qonunchilikning vujudga kelishi. Monopoliyaga qarshi siyosat. Davlatning tabiiy monopoliyaga qarshi tadbirlari. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Monopolistik korxonalarni tartibga solish usullari. Monopoliyaga qarshi siyosatning natijalari. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar. O'zbekiston respublikasining monopoliyalarga qarshi qonunchiligi va uni amalga oshirish mexanizmi.

9-MAVZU. OMILLI DAROMADLAR VA ISH HAQINING SHAKLLANISHI. ISHCHI KUCHI BOZORI VA BANDLIK

Mehnat haqi. Ish haqi to'g'risida turlicha nazariyalar. Ish haqining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ish haqining tabaqalanishi. Ish haqini tashkil qilish shakllari va tizimlari. Tarif tizimi. Minimal ish haqi.

Mehnat munosabatlari. Mehnat shartnomalari. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro munosabatlari. Kasaba uyushmalarining ish haqi darajasini oshirish yo'llari. Ishchi kuchi talabi va taklifini o'zgartirish. Kasb bo'yicha malaka darajasini litsenziyalash. Jamoa shartnomalari va ijtimoiy sug'urta tizimi. Mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning roli.

Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va taklif hamda uni aniqlovchi omillar. Ishchi kuchi bozorining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Fillips egri chizig'i.

Ishchi kuchini takror hosil qilish. Ishchi kuchining miqdoriy aniqlanishi va sifat o'lchamlari. Nufus qonuni. Aholining tabiiy o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari.

Ishchi kuchi bandligi to'g'risida turli xil nazariyalar. O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.

10-MAVZU. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA TADBIRKORLIK KAPITALI

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish shart-sharoitlari. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: davlat, jamoa, xususiy, aralash shakllari. Kooperativ, xususiy va yakka tartibdagi tadbirkorlik.

Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Tadbirkorlik kapitalining doiraviy aylanishi va uning bosqichlari. Tadbirkorlik kapitalining funksional shakllari: pul, unumli kapital va tovar. Tadbirkorlik kapitali turli shakllarining doiraviy aylanish xususiyatlari.

Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital, ularning farqli belgilari. Kapitalning aylanish vaqti va tezligi. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish: jismoniy va ma'naviy eskirishi hamda qayta tiklanishi. Amortizatsiya va uning normasi. Jadallashgan amortizatsiya. Asosiy va aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

11-MAVZU. IQTISODIY XARAJATLAR VA FOYDA

Iqtisodiy xarajat tushunchasi va uning turlari. Jamiyat va korxonalar xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni, tarkibi va turlari. Muomala xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlari. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlari. Me'yordagi foyda. Doimiy, o'zgaruvchi va umumiy xarajatlarning grafigi tasviri. O'rtacha xarajatlari. O'rtacha xarajatlarning egri chizig'i. Keyingi qo'shilgan xarajatlari tushunchasi. Xarajatlarni minimallashtirish qoidasi.

Qisqa va uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish xarajatlari. Ishlab chiqarish miqyosining ijobiy samarasi. Tannarx tushunchasi.

Korxonalar (firma) ning pul tushumlari va foydasi. Xarajatlari va daromadlari egri chizig'i. Zarar ko'rmaslik nuqtasi. Umumiy foyda. Foydaning tarkib topish bosqichlari. Foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Yalpi foydaning taqsimlanishi. Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqlanishi. Sof foyda. Foyda normasi va massasi hamda ularni hisoblash. Foyda normasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

12-MAVZU. AGRAR MUNOSABATLAR VA RENTA NAZARIYASI

Agarar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi o'rni. Yerning resurs sifatidagi o'ziga xosligi. Yerning tabiiy va iqtisodiy unumdorligi. Qishloq

xo'jaligida takror ishlab chiqarishning xususiyatlari. Yer mulkchilik va xo'jalik yuritish obyekti. Yerga egalik va yerdan foydalanish huquqi.

Yer rentasiga bo'lgan turli xil nazariy yondashuvlar va ularning tarixiy shakllari. Yer rentasining mazmuni va turlari: differensial renta, absolyut renta, monopol renta, undirma sanoat va qurilish uchastkalaridan olinadigan renta. Ijara haqi. Yerning narxi va uni belgilovchi omillar.

O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash choralari. Shaxsiy tomorqalarning kengaytirilishi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tarkibiy tuzilishini takomillashtirish. Xo'jalik yuritishning samarali shakllarini rivojlantirish. Fermer xo'jaliklari yer maydonlari hajmini optimallashtirish. Qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish.

13-MAVZU. MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARI. MILLIY HISOBLAR TIZIMI

Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Makroiqtisodiyot. Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot. Nominal va real yalpi ichki mahsulot. Narx indeksi. Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi. Sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad. Yalpi milliy daromad. Xufyona iqtisodiyot, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari.

Milliy hisoblar tizimi. YaIMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. YaIMni hisoblashga sarf-xarajatlar bo'yicha yondashuv. Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari. Investitsion sarflar. Davlat sarflari. Chet elliklarning sarflari. YaIMni hisoblashga daromadlar bo'yicha yondashuv. YaIMni hisoblash usullarining afzalliklari va kamchiliklari. YaIM va ijtimoiy farovonlik.

14-MAVZU. YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF

Yalpi talab tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi talab egri chizig'i. Yalpi talab miqdoriga ta'sir etuvchi omillar: iste'mol sarflaridagi o'zgarishlar, investitsion sarflar, davlat sarflari, sof eksportdagi o'zgarishlar.

Yalpi taklif tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi taklif egri chizig'i. Yalpi taklif egri chizig'idagi yotiq, oraliq va tik kesmalar. Yalpi taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: resurslar narxi va unumdorligining o'zgarishi, huquqiy me'yorlarning o'zgarishi.

15-MAVZU. ISTE'MOL, JAMG'ARMA VA INVESTITSİYALAR

Iste'molning mazmuni va uning turlari. Shaxsiy, unumli va ijtimoiy iste'mol. Iste'mol fondi va iste'molchilik sarflari. Jamg'arma va uning maqsadi. Iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Iste'mol va jamg'arma darajasini belgilovchi omillar. Iste'mol va jamg'arma hajmiga daromaddan tashqari ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va keyingi qo'shilgan moyillik va ularni aniqlash.

Iqtisodiy jamg'arishning mazmuni va uning manbalari. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg'arish. Jamg'arish normasi. Nominal va real jamg'arish.

Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari. Investor va investitsion faollik tushunchalari. Investitsiyalarning manbalari va tuzilishi. Investitsiyalarga sarflar darajasini belgilovchi omillar. Yalpi va sof investitsiyalar. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi nisbat.

O'zbekistonda investitsion faoliyatni ta'minlash va uning shart-sharoitlari. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ichki investitsiyalarning o'rnini va chet el investitsiyalarini jalb qilishning ahamiyati. Tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilishi.

16-MAVZU. IQTISODIY O'SISH VA MILLIY BOYLIK

Iqtisodiy o'sishning mezonlari va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish sur'ati. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari. Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Iqtisodiy o'sishning omillari. Yalpi talab va yalpi taklif o'zgarishining iqtisodiy o'sishga ta'siri. Iqtisodiy o'sishda taqsimlash omillarining o'rnini. Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar.

Milliy boylik va uning tarkibiy qismlari. Moddiy-buyumlashgan, nomoddiy (intellektual) va tabiiy boylik.

MHTda milliy boylikni aniqlashning o'ziga xosligi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishi va iqtisodiy o'sish muammolari. Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tejamkorlikning o'rnini. Tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslardan tejab-tergab foydalanish yo'llari.

Iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash vazifalari.

17-MAVZU. MILLIY IQTISODIYOTNING MUVOZANATI

Iqtisodiy muvozanatlik tushunchasi. Umumiy iqtisodiy va xususiy muvozanatliklar. Turg'un va muttasil o'zgarib turuvchi muvozanatlik. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlash usullari. Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli. Tarmoqlararo balans, "harajat" va "natija" usuli. Retsession va inflyatsion farq. Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli. Multiplikator samarasi. Akselerator samarasi. "Tejamkorlik paradoksi".

Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari. Mutanosibliklarning tasniflanishi. Mutanosibliklarni ta'minlash orqali milliy ishlab chiqarishning muvozanatli rivojlantirish maqsadlari.

O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiyalash modernizatsiyalash asosida mutanosibli rivojlantirish. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirish natijalari. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalarni o'z ichiga oluvchi uzoq muddatli dasturlarning ahamiyati.

18-MAVZU. MAKROIQTISODIY BEQARORLIK : INQIROZ, ISHSIZLIK VA INFLYATSIYA

Iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar va ularning namoyon bo'lish shakllari. Iqtisodiyotning siklli rivojlanishi. Iqtisodiy sikl fazalari. Siklik tebranishlar. Iqtisodiy sikl nazariyalari. Eksternal va internal nazariyalar. Sof monetar nazariya. Yetarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi. Jamg'arish nazariyasi. Psixologik nazariya. Iqtisodiy sikl turlari.

Iqtisodiy inqirozning mazmuni, sabablari va turlari. Pul-kredit sohasidagi inqiroz, valuta inqirozi, birja inqirozi, ekologik inqiroz, sanoat inqirozi, tarkibiy inqiroz, agrar inqiroz. Davriy, vaqtinchalik, muntazam ro'y beradigan inqirozlar. Ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish inqirozlari.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mohiyati, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari. Rivojlangan mamlakatlarning jahon moliyaviy inqirozidan chiqish borasidagi chora-tadbirlari.

Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar. O'zbekistonda inqirozga qarshi choralar dasturining mazmuni va ahamiyati.

Ishsizlik va uning turlari. Friksion, tarkibiy va siklik ishsizlik. Institutsional, texnologik, hududiy, yashirin, turg'un ishsizlik. Ishsizlikning tabiiy darajasi. Ishsizlik darajasi va uni aniqlash. Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Ishsizlik va inflyatsiyaning o'zaro bog'liqligi.

Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari. Inflyatsiya darajasi va sur'ati. Talab va taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiya turlari: o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflyatsiya. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati.

19-MAVZU. MOLIYA TIZIMI

Moliya tizimi va uning bo'g'inlari. Moliyaning mazmuni va takror ishlab chiqarishdagi ahamiyati. Moliyaviy munosabatlarning ob'ektlari va sub'ektlari. Moliyaning vazifalari. Davlat budjeti va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining tuzilishi.

Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi. Budjet taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Davlat ichki qarzi. Davlat tashqi qarzi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari. Soliq solish tamoyillari. Soliq imtiyozlari. Soliqlarning turkumlanishi. Laffer egri chizig'i. Soliq yuki va uning darajasini aniqlash. Soliq yukining taqsimlanishi.

O'zbekistonda soliq tizimining soddalashtirilishi va unifikatsiya qilinishi. Soliq sohasini yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalish va natijalari.

Moliyaviy siyosat. Fiskal (soliq-budjet) siyosat va uning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni

20-MAVZU. PUL MUOMALASI. KREDIT TIZIMI VA BANKLAR

Pul muomalasi. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash. Pul muomalasi qonuni. Pulning aylanish tezligi. Pul miqdorini aniqlashga turlicha yondashuvlar. Pul agregatlari. Pul bozorida talab va pul taklifi. Pul multiplikatori.

Kredit tizimi va uning tarkibiy qismlari. Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari. Kredit munosabatlarining obyektlari va subyektlari. Kredit resurslarining manbalari. Kredit berish tamoyillari. Foiz stavkasi va uning darajasini aniqlovchi omillar. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish.

Bank tizimi. Banklarning iqtisodiy mazmuni. Markaziy bank va uning vazifalari. Tijorat banklari va ularning vazifalari. Bank operatsiyalari va bank foydasining hosil bo'lishi. Bank tizimining takomillashtirilishi. Pul - kredit siyosati.

O'zbekistonda milliy valutani mustahkamlash, so'mning xarid quvvatini oshirib borish va barqarorligini ta'minlash vazifalari. Pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borish. Milliy valyuta almashuv kursining barqarorligiga erishish.

21-MAVZU. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI

Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi. Davlatning iqtisodiy vazifalari: bozor munosabatlari qatnashchilarini huquqiy himoyalash, raqobatchilik muhitini vujudga keltirish; resurslar, mahsulotlar va daromadlarni qayta taqsimlash; iqtisodiyotning va pul muomalasining barqarorligini ta'minlash; tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish. Fan-texnika taraqqiyoti, tarkibiy, ijtimoiy va mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda davlatning o'rni.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi bevosita va bilvosita usullari. Iqtisodiyotning davlat sektori va uning chegaralari. Davlat buyurtmalari va davlat xaridlari. Iqtisodiyotni bevosita tartibga solishning ma'muriy vositalari. Tartibga solishning tashqi iqtisodiy usullari

22-MAVZU. AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH FAROVONLIGI

Aholi daromadlari, ularning turlari va shakllanish manbalari. Nominal va real daromad. Daromadlarning tabaqalanish sabablari va omillari. Turmush darajasi va sifati. Turmush farovonligi va qashshoqlikning ko'rsatkichlari. Oila budjeti: daromadlar va xarajatlar tarkibi. Farovonlikning quyi chegarasi. Turmush tarzi. Yashash minimumi. Iste'molchilik savati.

Daromadlarni davlat tomonidan qayta taqsimlash g'oyasi, maqsadi va dastaklari. Ijtimoiy to'lovlar. Ijtimoiy siyosat. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari. Daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish. Ichki iste'mol bozorini himoya qilish. Aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatidan yangi bosqichga o'tilishi. O'zini - o'zi bandligini ta'minlash oila budjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbaiga aylanib borayotganligi.

23-MAVZU. XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR VA UNING SHAKLLANISHI. XALQARO SAVDO

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va shakllari. Kapitalning xalqaro harakati. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi. Fan-texnika yutuqlarining xalqaro ayirboshlanishi. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi.

Jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish. Moliya, valyuta va kredit, jahon savdosi sohalaridagi tartibga soluvchi tuzilmalar.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari to'g'risidagi turlicha nazariyalar Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari. Jahondagi asosiy integratsion guruhlarining amal qilish xususiyatlari. Ochiq iqtisodiyot va uning o'ziga xos belgilari.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining shart-sharoitlari. Respublikaning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining global, transkontinental, mintaqalararo va mintaqaviy darajalari. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

24-MAVZU. VALUTA MUNOSABATLARI, TO'LOV BALANSI VA UNING TAQCHILLIGI

Xalqaro savdo to'g'risidagi turli xil nazariyalar. Mutlaq ustunlik va qiyosiy ustunlik nazariyalari.

Xalqaro savdoning mazmuni. Eksport va import ular o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Eksport kvotasi. Eksport va import multiplikatori. Eksport va import hajmi o'zgarishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta'siri. Xalqaro savdoning xususiyatlari. Proteksionizm va erkin savdo siyosatlarini. Eksportni rag'batlantirish usullari.

To'lov balansi va uning tarkibi. Tashqi savdo balansi. Kapital harakati balansi. Rasmiy zaxiralarning asosiy ko'rinishlari. Rasmiy zaxiralar bo'yicha operatsiyalar. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining vujudga kelishida tashqi qarz va tashqi savdo balansidagi nomutanosibliklar kuchayishining ta'siri.

Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Milliy va xalqaro valuta tizimi. Jahon valuta tizimining rivojlanish bosqichlari: oltin standart, oltin-devizli va suzib yuruvchi valuta tizimi. Valuta kursi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Xarid qilish layoqati pariteti nazariyasi.

Valuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi. Xalqaro valuta fondi. Yevropa valyuta tizimi. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki. Xalqaro moliyaviy korporatsiya. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti. Yevropa tiklanish va taraqqiyoti banki. Osiyo taraqqiyot banki.

“MENEJMENT” FANI

1-MAVZU. “MENEJMENT” FANINING MAZMUNI PREDMETI OB'YEKTI VA METODI

Menejment fanining mazmuni, mohiyati, fanni o'qitish maqsadi va vazifalari, menejment obyekti va subyekti. Menejment fanining tahliliy usullari (tizimli yondashuv, kompleks yondashuv, integratsion yondashuv, iqtisodiy-vaziyatli

yondashuv, iqtisodiy-matematik yondashuv, modellashtirish, kuzatish, eksperiment, sotsiologik kuzatish usullari) ning qo'llanilishi. Menejment fanining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqalari.

2-MAVZU. MENEJMENTNING RIVOJLANISH TARIXI VA HOZIRGI HOLATI

Menejmentning tarixiy shart-sharoitlari. Menejmentning paydo bo'lishi. Mashinali ishlab chiqarishni rivojlanishi. Tadbirkorlarni sanoat inqilobi davrida yaratilgan texnikaning afzalliklaridan foydalanishga harakatlari. Menejmentning ilmiy maktablari. Ilmiy boshqaruv maktabi. Boshqaruvning klassik yoki ma'muriy maktabi. Boshqaruvdagi insoniy munosabatlar maktabi. Ahloqiy fanlar yoki bixevoristik maktab. "Tizimli yoki zamonaviy menejment" maktabi mohiyati. Mamlakat boshqaruvining rivojlanishi. Hozirgi zamon o'zbek menejmentining xususiyatlari. Menejmentning xorijiy modeli. Menejmentning Amerikacha modeli. Menejmentning Yapon modeli. Menejmentning G'arbiy Yevropa modeli.

3-MAVZU. MENEJMENTNING NAZARIY ASOSLARI

Boshqaruv va menejment. Moliyaviy menejment. Innovatsion menejment. Savdo menejmenti. Boshqaruv (menejment) tizimining mohiyati. Menejment tizimining tuzilishi. Boshqaruv tizimining boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimchalari. To'g'ridan to'g'ri aloqa. Teskari aloqa. Menejmentga nisbatan yondoshuvlar. Menejment tamoyillari. Mehnat taqsimoti tamoyili. Vakolatlar va javobgarlik tamoyili. Intizom tamoyili. Yakka hukmronlik tamoyili. Harakatlar birligi tamoyili. Shaxsiy manfaatlarni bo'ysundirilishi tamoyili. Xodimlarni mukofotlash tamoyili. Markazlashtirish tamoyili. Qoyali zanjir tamoyili. Tartib tamoyili. Adolat tamoyili. Xodimlarning barqarorligi tamoyili. Tashabbus tamoyili. Korporativ ruh tamoyili. Boshqaruv usullari. Boshqaruvning iqtisodiy usullari. Boshqaruvning ma'muriy usullari. Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullari.

4-MAVZU. MENEJMENT TEXNOLOGIYASI

Boshqaruv jarayoni. Maqsadlar. Boshqaruv vazifalari. Rejalashtirish. Tashkil qilish. Muvofiqlashtirish. Nazorat. Motivatsiya. Motivatsiya nazariyalari. Boshqaruv qarorlari. Qarorni bajarilishini tashkil qilish. Qarorni bajarilishi ustidan nazorat qilish, faoliyat va qarorga tuzatishlar kiritish. Qarorni bajarish bo'yicha faoliyatni baholash.

Boshqaruvda axborotlar va kommunikatsiyalar. Tashkilot va tashqi muhit o'rtasidagi kommunikatsiyalar. Ishlab chiqarish va boshqaruv bosqichlari bo'yicha bo'linmalar ichidagi kommunikatsiyalar. Shaxslararo kommunikatsiyalar. Bo'linmalar o'rtasidagi kommunikatsiyalar. Norasmiy kommunikatsiyalar. Kommunikatsion jarayon. Kommunikatsion tarmoqlarning namunalari.

5-MAVZU. TASHKILOTLAR VA ULARNI BOSHQARISH

Tashkilotlar tushunchasi va ularning tavsifi. Tashkilotning yashash davri. Tashkilotlarning ichki muhiti. Tashkilotlarning tashqi muhiti. Tashkilotlar faoliyatini turkumlashtirish. Tashkiliy tuzilmalarning turlari. Tashkilotning tashkiliy

tuzilmasi. Mehnatni gorizontal bo‘linishi. Mehnatni vertikal taqsimlanishi. To‘g‘ri chiziqli tuzilma. Boshqaruvning vazifaviy tuzilishi. To‘g‘ri chiziqli vazifaviy tuzilma. Boshqaruvning to‘g‘ri chiziqli - shtabli tuzilmasi. Boshqaruvning matritsa tuzilmasi. Divizional (yoki bo‘limli) tashkiliy tuzilma. Mahsulotli tashkiliy tuzilma. Mintaqaviy tashkiliy tuzilma. Asosiy tashkiliy-xuquqiy shakllar. Ma‘suliyati cheklangan jamiyat. Qo‘shimcha ma‘suliyatga ega jamiyat. Aktsiyadorlik (hissadorlik) jamiyati. Davlat unitar korxonalari. Notijorat tashkilotlar. Matlubot kooperativi. Kartel.Sindikata. Trest. Kontsern. Konsortsium. Sanoat xoldinglari. Tadbirkorlar uyushmalari. Virtual korporatsiya. Tashkilotlarni rivojlanishidagi zamonaviy tendentsiyalar. Tashkilotlarning yangi turlari. Tashkilotlarni strategik boshqarish. Strategik boshqaruv tuzilmasi. Strategik maqsadlarini belgilash. Strategiyani tanlash.

6-MAVZU. ZAMONAVIY MENEJER

Menejer: tushunchasi, shaxsiy va ishga doir sifatlari, vazifalari. Korxonada menejerlarining darajalari. Menejer va yetakchi. Yetakchilik sifatlari nazariyasi. Yetakchilik xulqi kontseptsiyalari. Menejerning uslubi. Rahbarlik uslublarining mazmuni. Rahbarlikning demokratik uslubi. Ishga doir etika va etiket. Menejerning imidji. Imidj tushunchasi. Ishbilarmonlik etikasi. Nutq madaniyati. Ishbilarmonlik etiketining milliy xususiyatlari. Menejerning ish bilarmonlik sifatlarini baholash.

7-MAVZU. BOSHQARUV MEHNATINI TASHKIL QILISH

Boshqaruv mehnati: ta‘rifi, xususiyatlari, turlari. Evristik mehnat. Ma‘muriy mehnat. Operator mehnati. Boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil qilish. Rahbarni o‘zini o‘zi boshqarishi.

Mehnatni boshqarishning xarakteri. Iqtisodiy o‘shishning har xil bosqichlarida mehnatni boshqarish turlari. Mehnatni texnokratik boshqarish. Sanoatda bandlikning umumiy tamoyillari va mehnat munosabatlarini o‘rnatish. Mehnatni innovatsion boshqarish. Korporatsiyalarda “Sifat to‘garaklari” ishchi guruhini tashkil etish.

8-MAVZU. MEHNAT JAMOALARI XODIMLARINI BOSHQARISH

Jamoa tushunchasi, turlari, shakllanish bosqichlari. Mehnat jamoasi. Ta‘sir o‘tkazish va hukmronlik. Majbur qilishga asoslangan hukmronlik. Mukofotlashga asoslangan hukmronlik. Ekspertli hukmronlik. Namuna yoki xarizma hukmronligi. Qonuniy hukmronlik. Resurslarga egalik qilishga asoslangan hukmronlik. Axborotlarni olish va ulardan foydalanishga asoslangan hukmronlik.

Nizolarni boshqarish. Nizolarning vazifalari. Shaxs ichidagi nizo. Shaxslararo nizo. Shaxs va guruh o‘rtasidagi nizo. Guruhlararo nizo. Nizolarni hal qilishning tarkibiy usullari.

Xodimlarni boshqarish. Xodimlarni boshqarish tizimi. Xodimlarni tanlash. Xodimlardan foydalanish. Korxonada qudratini boshqarish texnologiyasining bosqichlari. Korxonada qudratidan foydalanish dinamikasi va samaradorligining tuzilishini, uning bozordagi ulushini baholash. Korxonada qudratining

raqobatbardoshligini baholash. Korxonaning iqtisodiy qudrati. Korxonada qudratining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha strategiya va taktikani tanlash.

Boshqaruv samaradorligining mohiyati va me'zonlari. Boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari.

9-MAVZU.KORXONA QUDRATINI BOSHQARISH

Korxonada qudratini boshqarish texnologiyasining bosqichlari. Korxonada qudratidan foydalanish dinamikasi va samaradorligining tuzilishini, uning bozordagi ulushini baholash. Korxonada qudratining raqobatbardoshligini baholash. Korxonaning iqtisodiy qudrati. Korxonada qudratining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha strategiya va taktikani tanlash.

Boshqaruv samaradorligining mohiyati va me'zonlari. Boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari.

II. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar

1. Shodmonov Sh., Rahmatov M., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.-T«Zamin nashr» nashr, 2021.-856 b.

2. Jo'rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik..-T.: «Fan va texnologiya» nashr, 2018. – 512 bet.

3. Shodmonov Sh.Sh., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2017. – 728 bet.

4. Jo'rayev T., Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma. .-T.: «Fan va texnologiya» nashr, 2017. 638 bet.

5. Yo'ldoshev N., Zaxidov G. Menejment. Darslik. – T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018 y. – 392 bet.

6. Nabiyev E.G'. va boshqalar. Menejment va marketing. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019 y.

7. Bazarova F. Menejment: Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020 y.

8. Sharifxo'jayev M. Menejment. Darslik.-T.: O'qituvchi, 2001.-645 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini

11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

12. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

13. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

14. Toshmatov SH, Asatullaev X, Allaberganov Z. Darslik. T.: Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi« Iqtisod-moliya», 2018. – 362 bet.

Internet saytlari

15. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.

16. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

17. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.

18. www.soliq.uz– O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.

19. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.